



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi

**O'ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI**

**5**

**2025**

## ALISHER NAVOIYNING AN'ANAVIY SYUJETNI YANGILASH TAMOYILLARI

Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si o'zidan keyin juda uzoq davom etgan an'anani yuzaga keltirgan bo'lsa-da, uning o'zi ham birdaniga paydo bo'lgan hodisa emas. G'.Dabiriy ta'kidlaganidek, "Xamsa" nafaqat Attorning allegorik sarguzasht dostonlariga zamin hozirlagan original majmua, ayni paytda, tarixiy asarlar va "Shohnoma"ning vorisi ham edi<sup>1</sup>. Zabihullo Safo esa bu borada shunday yozadi: Nizomiy "Iskandarnoma"ni yozishda Firdavsiyga taqlid va payravlik fikrida edi, shu bois "Iskandarnoma" butunlay yangi emas, balki taqlidiy asar... u Nizomiyning boshqa masnaviylari kabi nufuzga ega bo'ldi va mutaqorib bahridagi "Iskandarnoma" nomli yoki shunga o'xshash masnaviylarga moyayi ijod vazifasini bajardi<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy"da xronik syujet yaratar ekan, masalaga o'ziga xos tarzda yondashdi. U Iskandar qissasini haddan tashqari katta va bir asarga sig'dirish imkonsiz deb hisoblagan, shu bois ulkan voqelikni ma'lum tamoyillarga asoslanuvchi syujet kompozitsiyasi orqali ideal darajada qamrab olishga intildi. A.N.Veselovskiy syujet poetikasi haqida to'xtalib aytadiki, "tarixiy poetikaning vazifasi... shaxsiy ijod jarayonida an'analarning roli va chegarasini ko'rsatib berishdan iborat"<sup>3</sup>. Bu jihat an'ana doirasida yaratilgan asarlar syujetida yanada e'tiborli, chunki muallifga xos individuallik va asar matniga xos intertekstuallik<sup>4</sup> ayni mana shu chegaralarda ko'proq namoyon bo'ladi. Shuning uchun Navoiyning syujet yaratish yoxud an'anaviy syujetni qayta ishlash mahoratini qiyosiy aspektda o'rganish maqsadga muvofiq.

Alisher Navoiy Iskandar haqidagi an'anaviy syujetni yangilashda amal qilgan tamoyillardan biri **mavjud syujetni yolg'ondan tozalash**<sup>5</sup> bo'lsa, ikkinchisi, **yaxlitlash**<sup>6</sup> edi. Navoiy mavjud syujetdagi qaysi epizod yoki detallarni yolg'on deb bilgani haqida to'xtalgan emas, shu bois bu masalada muayyan mulohazalarnigina bildirish mumkin. Birinchidan, bunday yondashuv voqealar qurilishi, ayrim epizod va detallarga daxldor bo'lishi kerak. Masalan, Nizomiy syujetida Doro ikkinchi bor yuborgan elchi o'zi bilan go'y, chavgon va kunjut olib keladi, Iskandar esa javoban sipandon (isiriq urug'i) yuboradi. Navoiy syujetga sipandon yuborish va u bilan bog'liq ta'birlar epizodini kiritmagan. Buning ilk sababi voqeaning tarixiy asosiga doir ixtilof bo'lsa, keyingi omil Navoiyning nuqtayi nazari edi. U davlat arbobi sifatida bunday munosabatlarga realroq qaragan. Ikkinchidan, Navoiy Iskandar qissasi doirasida tasvirlanuvchi alohida voqealar liniyasini nazarda tutgan bo'lishi kerak. Xususan, u Nizomiy syujetidagi Iskandarning Zulqarnayn deb nomlanishi, ikki shoxli deb atalishi bilan bog'liq syujet qismlari, ko'plab folklor xarakteridagi afsonalarni tushirib qoldirgan.

<sup>1</sup> G h a z z a l D. The Origins and Development of Persian Epics: A Diss. ...Ph.D. – Los Angeles, 2007. – P. 166.

<sup>2</sup> صفا ذبیح الله. حماسه سرایی در ایران. – تهران: پیروز، ۱۳۳۳. – 352 - 350 ص.

<sup>3</sup> Веселовский А. Историческая поэтика. – М.: "Высшая школа", 1989. – С. 300.

<sup>4</sup> Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2013, 6-сон, 32 – 39-бетлар.

<sup>5</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами, XX жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: "Фан", 1993, 127-бет.

<sup>6</sup> O'sha joyda, 133-bet.

Mavjud syujetni tozalash Navoiyga materialni ma'lum darajada qisqartirish imkonini berishiga qaramay, keyingi bosqichda saralangan syujetni yaxlitlashga ham to'g'ri kelgan, chunki Navoiyning maqsadi sof jangnoma yaratish bo'lmagan. Shu bois o'zi tasvirlagan tarixiy voqelikning mohiyati bilan bog'lash mumkin bo'lgan nazariy qarashlar, hikoyatlar va hikmatlarni asarga kiritishni istagan, buning uchun esa dostonning badiiy maydonidan joy kerak edi. Navoiy mana shu maqsad taqozosi tufayli mavjud syujetning eng muhim nuqtalarinigina tasvirlashga qaror qilgan. Lekin Navoiy Xusrav va Jomiy kabi Iskandar sarguzashtlarini o'ta qisqartirib yubora olmasdi ham, chunki fanga ma'lum 9 turkiy iskandarnomadan faqat "Saddi Iskandariy" Xuroson va Movarounnahr mintaqasida yaratilayotgan edi<sup>7</sup>.

Bizningcha, Navoiyning mavjud syujetni yaxlitlashi ikki xil aspektda sodir bo'lgan, biri, o'ziga qadar xamsanavislik doirasida yaratilgan iskandarnomalar syujetini yaxlitlash, ikkinchisi, Nizomiy syujetini yaxlitlash. Birinchi aspektga ko'ra, "Shohnoma" tarkibidagi "Iskandar dostoni"ni uslubiga ko'ra haqiqiy jangnoma deyish mumkin<sup>8</sup>. "Xamsa" "Shohnoma"dan so'ng yuzaga kelgan epik janrning asosiy turlarini o'zida aks ettirsa-da<sup>9</sup>, uning tarkibidagi qahramonlik mavzusidagi asarlarda ham boshqa mavzu va yo'nalishlarning qorishiq tasviri uchraydi. Barcha mualliflar takrordan saqlanishga harakat qilgan, natijada XVI asr va undan keyin yaratilgan "Xamsa"larda bunday tajribalar, xususan, mavzularni o'zgartirish ustuvor ahamiyat kasb etgan<sup>10</sup>. Bu tendensiya iskandarnomalarning nomlanishida ham ko'zga tashlanadi.

Ikkinchi aspektga ko'ra, Nizomiy Firdavsiydan farqli o'laroq suryoniy, pahlaviy, forsiy, arabiy va yunoncha tarixiy, diniy, adabiy va folklor manbalardagi Iskandarga oid ko'plab ma'lumotlarni qamrab olishga intildi, natijada "Iskandarnoma" 10 000 baytdan oshib ketdi. Navoiy esa Nizomiy syujetini yaxlitlashga harakat qildi, chunki asarda falsafiy-ma'rifiy g'oyalarni ifodalash maqsadi shunday yo'l tutishni taqozo etardi. Bu Nizomiy syujetining Navoiy tomonidan ixchamlashtirilishidagi bosh sabab, lekin jarayon turli rakurslarda amalga oshirilgan. Ba'zan syujet qismlari tushirib qoldirilgan. Ba'zan Nizomiy syujetining turli o'rinlarida uchrovchi epizodlar umumlashtirilgan<sup>11</sup>. Ba'zan Nizomiy syujetining Navoiy tomonidan yaxlitlanishi milliy kolorit ifodasini yangilash va kuchaytirish yo'sinida amalga oshirilgan.

Navoiyning mavjud syujetni takomillashtirishdagi yana bir muhim tamoyili **an'anaviy syujet tarkibi va tartibining o'zgartirilishidir**. Tarkib o'zgarishi ikki xil tarzda amalga oshirilgan, biri, butunlay yangi voqealar olib kirish orqali, ikkinchisi, mavjud voqelikni qo'shimcha tafsilotlar bilan boyitish orqali.

Navoiy tarkib o'zgarishining birinchi xiliga syujetning boshidayoq qo'l urgan, ya'ni "Saddi Iskandariy"ing dastlabki prolog-bobi (XI, XII, XIII, XIV fasllar)da ajam shohlarining to'rt taboqoti – peshdodiy, kayoniy, ashkoniy va sosoniylar haqida qisqacha tarix bitadi. Nima uchun to'rt sulola to'g'risida yozishga qaror qilgani va bu boblarni nima maqsadda kompozitsiya va fabulaning shu

<sup>7</sup> A v c 1 İ. Türk Edebiyatında İskendernâmeler ve Ahmed-i Rıdvân'ın İskendernâme'si: Doktora tezi. – Balıkesir, 2013. – S. 37.

<sup>8</sup> نعمانی، پروفیسور شبلی، شعر العجم، ترجمہ گیلانی. – تہران: چاپخانہ علمی، ۱۳۱۶. ص 259.

<sup>9</sup> Ghazzal D. The Origins and Development of Persian Epics. – P. 169.

<sup>10</sup> А р а с л ы Н. Низами ва турк эдэбијјаты. – Бакы: "Елм", 1980. – С. 80.

<sup>11</sup> Н и з о м и и Г а н ж а в и й. Хамса: Искандарнома. – Душанбе: "Адиб", 2012. – С. 406 – 410; А б у л к о с и м и Ф и р д а в с и й. Шохнома: иборат аз 9 ҷилд. Ҷилди 7. – Душанбе: "Адиб", 1989. – С. 117 – 118; – تہران: ترجمہ بزرگ علوی. – حماسه ملی، ایران. نولدکه تنویر. ۱۳۲۷. ص 90.

o'ringa joylashtirgani borasida XI fasl sarlavhasida shunday yozadi: *Bu gavharfishonliqdin chun ulug' maqsud tarix ilmi maxzanig'a vuquf topmog'lig' va bu javohir nishonliqdin kulliy murod salotini moziya holoti makshuf bo'lmog' erdi, ul jihatdin Ajam mulukikim...*

Demak, Navoiy "Saddi Iskandariy"ga faqat tarixiy mavzudagi asar deb emas, tarixiy haqiqatlarga asoslangan asar sifatida ham qaragan. To'rt tabaqa Ajam shohlari tarixini aks ettiruvchi boblarning shu qismga joylashtirilgani buni tasdiqlaydi. Navoiy o'z tasvir obyekti bo'lgan Iskandar tarixini yozishdan oldin tarixchilik an'anasiga muvofiq to'rt tabaqa tarixini bitishga qaror qiladi. U tarixiylik prinsipiga amal qilish orqali syujetning adabiy an'ana talab qilganidek emas, balki imkon qadar tarixiy haqiqatlarga muvofiq bo'lishiga intilgan. Yuqoridagi fikrlar dostonning asosiy qismi mazkur boblardan boshlanishini anglatadi.

Navoiy va Nizomiy syujeti Iskandarning Daroni yengib, forslarni bo'ysundirguniga qadar, asosan, bir-biriga yaqin. Umumiy o'xshashlikni mavzu va tasvir obyektining bir xilligi keltirib chiqargan bo'lsa-da, tafsilotlar va talqin borasida individual yo'ldan borilgan. Navoiy keyingi voqealar rivojini yangi o'zanga burish orqali, mutlaqo original yo'l tutishga o'tadi. Navoiy syujetidagi keyingi qissa Nizomiy dostonida uchramaydi, syujetga Nizomiy umuman tilga olmagan butun boshli boblar kiritiladi. Shunday yangi qismlardan biri Kashmir safari bo'lib, mavjud iskandarnomalarning birortasida uchramaydi.

Navoiy syujet yaratishda amal qilgan tarkib o'zgartirishning ikkinchi shakli mavjud voqelik tasviriga qo'shimcha tafsilotlar qo'shishdir. Masalan, har ikki ijodkor Doro va Iskandar qo'shinining jangga tayyorgarligi to'g'risida batafsil ma'lumot bergan. Navoiy esa salafidan farqli o'laroq qo'shin qismlarida qaysi millat vakillari joylashganini ham aniq qayd etadi. Masalan, Navoiy Iskandar qo'shinining burong'orida 100 000 qonxo'r farang ahli bo'lgani, ularga Shaypol sipohdor ekani, juvong'orda Bartos-u Ruslar bo'lgani, ular ham 100 000 bo'lib, boshlariga sariq qush pati o'rnatilgan dubulg'a kiygani, hirovulda esa zangiylar turgani, g'ulini esa to'liq rumlik sipohlar egallaganini ko'rsatadi. Nizomiy esa rum qo'shinining jangga tayyorgarligi tasviri uchun uch bayt ajratadi, xolos. Navoiy faktlarga boy, konkret tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi syujet yaratishga intilgan va mana shu istak sabab yangi-yangi ma'lumot, lavha va detallarni olib kirgan.

Navoiy tomonidan **an'anaviy syujet tartibining o'zgartirilishi** ham yangicha syujet yaratishda muhim tamoyil bo'lgan. Navoiy bir necha o'rinlarda shunday o'zgarishlarga qo'l urgan bo'lib, ularning barchasi yetarlicha asoslangan. Masalan, Nizomiy Doro vafotidan so'ng Iskandarning Ravshanakka uylanishi epizodini tasvirlagan. Navoiy syujetida ham Ravshanak va Noz Mehrga uylanish Iskandarga vasiyat qilinadi, Iskandar buni qabul qilgani holda to'yni keyinga qoldiradi, lekin nima uchun shunday qilingani o'sha paytda izohlanmaydi. Navoiy bu epizod uchun badiiy sharoit hozirlaydi, shu bois mazkur epizodni Chin safariga ko'chirib, ko'tarinki kayfiyatga vobasta bahor fasli va Iskandarning ikki kashfiyotdan behad mamnunligi fonida syujetga olib kiradi. Bordi-yu vasiyat mahalida to'y tasvirlanganida bu qadar muvofiqlik yuzaga chiqmasdi, chunki azador malikaning turmushga chiqishi tantana kayfiyatiga mos tushmasdi. Navoiy syujet yaratishda mana shunday nozik ichki kechinmalarni ham e'tibordan qochirmaydi. Xuddi shunday tartib o'zgartirilishi Chin kanizagi bilan bog'liq tasvirlarda ham ko'zga tashlanadi. Nizomiy syujetidagi epizodlar tartibining Navoiy tomonidan o'zgartirilishi muayyan mantiqiy asoslarga ega, ularning

aksariyati muallif dunyoqarashi va ijodiy konsepsiyasi bilan bog'liq holda o'zgartirilgan.

Navoiy an'anaviy syujetni yangilashda tayangan yana bir muhim tamoyil **tipologik epizodlarning yangicha talqin etilishidir**. Bu Navoiy syujeti originalligini asoslovchi eng asosiy xususiyatlardan biri bo'lib, ular orqali muallif pozitsiyasini yaqqol ilg'ash mumkin. Iskandarning Faylaqus o'limidan so'ng taxtga o'tirish epizodi bu borada xarakterli. Nizomiy Faylaqus o'limi tafsilotlarini qayd etmay, vafot etganini aytgan, xolos. Iskandar ham otasi taxtini "bexijolat", qonuniy voris sifatida qabul qiladi va barcha shahzodalar kabi davlat ishlariga kirishadi. Navoiy esa o'z uslubiga muvofiq Faylaqus o'limiga *Iskandar balog'atga yetgan paytda Faylaqusning umri tugab, vafoti yaqin edi* degan asosni keltiradi. Bu paytda Iskandar davlat boshqaruviga tayyor edi, biroq Navoiyning Iskandari toj kiyishni ham xohlamaydi. Nizomiy Iskandarning taxtga o'tirishini tasvirlagach, uning Yunonistonda amalga oshirgan ishlari, barcha sohada adolat mezoni bilan ish tutgani, saxovati bilan barchani xushnud etgani, Arastu maslahati bilan shuhrati ortganini aytadi. Navoiy ham uchinchi bobda mazmunan shunga yaqin voqelikni tasvirlagan, biroq undan oldin mutlaqo yangi epizod – Iskandarning xalqni yig'ib oshkora taxtdan voz kechishi voqeasini kiritgan. Bundan oldingi boblardagi Naqumohis tavsifi va Iskandarning salohiyati haqidagi fikrlar Navoiyga Iskandarni *bilik ichra toq, toj-u taxtni malol ko'ruvchi* obraz sifatida talqin qilish imkonini bergan. Syujetni bunday o'zgartirish, shubhasiz, muallifning ijodiy konsepsiyasi bilan aloqador edi. V.M.Jirmunskiy qayd etganidek, har qanday adabiy ta'sir o'zlashtirilgan obrazning ijtimoiy transformatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni biz uni ijodiy qayta ishlash va o'zaro munosabatlar shartini ko'rsatuvchi ijtimoiy sharoitga, ijtimoiy rivojlanishning ayni bosqichidagi milliy xarakter va milliy hayot asoslariga, milliy adabiy an'ana, shuningdek, mafkuraviy va badiiy o'ziga xos bo'lgan o'zlashtiruvchi muallifning ijodiy individualligiga moslashtirish deb tushunamiz<sup>12</sup>.

Navoiyning mavjud syujetni bu tarzda o'zgartirishi, bir tomondan, tasavvuridagi Iskandar shaxsiyati, bu orqali idealidagi hukmdorlikka xos xususiyat, ya'ni hukmdor tabiatida faqurlik fazilati bo'lishi kerakligini ko'rsatib berish bilan, ikkinchi tomondan, qahramonni o'z davri ijtimoiy hayoti va adabiyoti talablariga moslashtirish bilan bog'liq edi. Bunday yo'l tutishga undagan boshqa bir omil o'sha davrdagi siyosiy vaziyat, aniqrog'i, Husayn Boyqaro va uning o'g'illari o'rtasidagi taxt talashi bo'lishi kerak. Navoiyning Iskandarni ma'rifatli shoh deb bilishi ham syujetga bunday jiddiy o'zgartirish kiritilishida asosiy sabablardan bo'lgan. Ayn ul-yaqin darajadagi ustozdan ta'lim olgan shaxsning bunday fikrlashi ham mantiqli chiqqan. "Saddi Iskandariy"ning ayni shu nuqtasidan Iskandar obrazi dunyoni anglagan shaxs qiyofasida gavdalana boshlaydi. Syujetni bu tarzda o'zgartirish, aslida, Navoiyga shu kabi ulug'vor g'oyalari ifodasi uchun zarur edi.

Syujetning muhim pallalarida Navoiy individual yo'l tutishga harakat qiladi yoxud mustaqil fikrga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Doroning o'limi masalasida. Nizomiy talqinida Doro zulmidan ozor chekkan ikki tansoqchisi qulay fursatni poylab, Iskandarga noma yuborib, o'z maqsadlarini ma'lum qilishadi va Iskandar bilan kelishuvga binoan Doro o'ldiriladi. Navoiy talqinida esa Doroni ikki xos xizmatkori o'ldirgan va ular Iskandarga noma yuborib, Doroni o'ldirmoqchi ekanliklarini bildirganda Iskandar bunga sukut saqlashni ma'qul ko'radi, chunki bu ish hiyla bo'lishi ham mumkin edi. Nizomiy va Navoiyning bir

<sup>12</sup> Ж и р м у н с к и й В.М. Сравнительное литературоведение. – Л.: "Наука", 1979. – С. 75.

masalada fikrlari prinsipial farqqa ega, Nizomiy Iskandarning qotillar bilan aloqasi borligini qayd etsa, Navoiy bu fikrga qo'shilmaydi. Navoiy tasavvuridagi Iskandar bunday masalalarda mulohazakor, zero, Navoiy uni donishmand, xiradmand, davlat ishlaridan yaxshi xabardor shaxs deb bilgan. Mazkur qarash dabdurustdan qilingan taklifga rozilik berish yoki rad etishni taqozo qilmasdi. Navoiy uslubiga xos badiiy mantiq Iskandar tilidan o'sha pallada sukut saqlanishiga va uning firib bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'ylashga olib kelgan. Qolaversa, manbalarda ayni masalada ixtilof bor edi. Ehtimol, Navoiy ushbu qarashni ma'qul ko'rgandir, lekin bu ma'qul ko'rish muayyan ma'nolarni anglatadi. Navoiyning bu talqini bevosita yana uning Iskandar haqidagi tasavvurlari bilan tutashadi, ya'ni Navoiy Iskandarni olijanob, Tangri ko'magidagi inson deb bilgan, shu bois uning qandaydir fitnaga sherik bo'lishi, xiyonat orqali maqsadni ko'zlashi yuqoridagi tasavvur bilan sig'ishmasdi.

Yuqoridagi holatlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar ham borki, ular bevosita muallif uslubi bilan aloqador. Y.Is'hoqov Navoiyga xos "uslubning asosiy belgilari muallif dunyoqarashi, uning g'oyaviy-estetik pozitsiyasi va umuman, uning shaxsi bilan chambarchas bog'liq"<sup>13</sup> deganda haq edi. Xususan, Navoiyning Iskandarga oid butun tasvirlari **izchillik**ka asoslangan, unda birorta tushunarsiz holat yoki asossiz o'rin uchramaydi. Navoiy Iskandar qissasining asosiy nuqtalarigagina e'tibor qaratgan bo'lsa-da, voqealar o'rtasida mustahkam bog'lanishni yuzaga keltira olgan. Masalan, Naqumohisni ulug' martabali ustoz sifatida tavsiflash Iskandarning har sohada inson yetishi mumkin bo'lmagan darajaga erishganini asoslasa, Iskandarning *donoyi ofoq* ekani tojdan bosh tortishi, ayni paytda, taxtga chiqishiga zamin bo'lib xizmat qilgan. Shu tariqa Navoiyning butun syujetni yaxlit sistemaga aylantira olganini isbotlash mumkin.

Navoiy tasviriga xos izchillik va ishonchlilikni yuzaga keltirishida **badiiy mantiqning** ham ahamiyati katta. U syujet yaratishdagi mazkur jihatga muntazam e'tibor qaratish orqali ham originallik namoyon eta olgan. Nizomiy va Navoiyning bu jihatga e'tibori Xoqon va Iskandar munosabatida yaqqol namoyon bo'lgan. Xususan, Xoqonning elchi qiyofasida Iskandar bilan uchrashishi borasida. Nizomiy Xoqonning o'zi borishga qaror qilgani va elchi qiyofasida saharda yo'lga tushganini qayd etgan, lekin Xoqonning o'z arkoni bilan buni maslahat qilgani yoki yo'qligi, boshqalarning bilib qolmasligi uchun qanday yo'l tutgani, bu ishning maxfiyligi kabi masalalar ochiq qoladi. Navoiy tasavvuriga ko'ra, davlat rahbarining bunday nozik harakatlari o'z a'yonlaridan ham qattiq sir tutilishi lozim edi. Shu bois Xoqon obrazining yoniga xos mahram personaji, bir kun hech kimni qabul qilmaslik haqidagi e'lon, o'z odamlari tanib qolmasligi uchun tong qorong'usida yo'lga chiqish kabi detallarni qo'shadi, natijada, Xoqonning xatti-harakati borasida hech qanday savolga o'rin qolmaydi. Iskandar va Xoqonning muzokaradan keyingi harakatlari borasida ham shunday deyish mumkin.

Xullas, "Navoiy yangi tarixiy sharoitda yashagan, o'z oldiga yangi g'oyaviy-estetik vazifalar qo'yanligi uchun mavjud adabiy tajriba va an'analar doirasida qolib ketolmas edi. Bor materiallarni tanlash, saralash va ularni qayta ishlab olish, yangi materiallar kiritish, xulosa qilib aytganda, Iskandar obrazini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarish kerak edi"<sup>14</sup>. Iшонch bilan aytish mumkinki, Alisher Navoiy bu missiyani uddalay olgan.

<sup>13</sup> Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: "O'zbekiston", 2014, 309-бет.

<sup>14</sup> Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги НМИУ, 2015 195 – 196-бетлар.

**REZYUME.** Maqolada Alisher Navoiy Iskandar bilan bog'liq an'anaviy syujetni yangilashda qanday tamoyillarga tayangani aniqlanib, ular Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy iskandarnomalari misolida tadqiq etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье выявляются принципы, на которые опирался Алишер Навои при обновлении традиционного сюжета об Александре, и рассматриваются они на примере искандернаме Низами Гянджеви и Алишера Навои.

**RESUME.** The article identifies the principles on which Alisher Navoi relied when updating the traditional plot related e to Alexander, and examines them using the examples of the Iskandarnames of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi.

**Tayanch so'z va iboralar:** syujet, muallif, individuallik, an'ana, tamoyil, ijodiy konsepsiya, badiiy adabiyot.

**Ключевые слова и выражения:** сюжет, автор, индивидуальность, традиция, принцип, творческий замысел, художественная литература.

**Key words and word expressions:** subject, author, individuality, tradition, principle, creative concept, artistic literature.

Sayfiddin RAFIDDINOV

## NISHOTIYNING "QUSHLAR MUNOZARASI" ASARI

XVIII asr o'zbek adabiyotining Xorazmdagi atoqli namoyandalaridan biri Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodi haqida tarixiy va adabiy manbalarda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shoirning asarlaridan uning hayoti haqida ayrim ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ba'zi manbalarda shoirning 1701-yil Xorazmda tavallud topgani aytiladi. Muhammadniyoz Xivadagi maktab-madrasalarda o'qib, bilim olgan, ko'pgina ilmlarga, jumladan, she'riyatga alohida qiziqish bilan qaragan. Zamonasining madaniyatli, ma'rifatli kishisi bo'lib yetishgan va Nishotiy taxallusi bilan she'rlar yozib, xalq orasida tanilgan.

Shoir "Husnu Dil" dostonida Xorazmda tug'ilib o'sgani, ilm-ma'rifatga ega bo'lgani, Xorazm yurtining go'zalligi va ahli ilmlarning ko'pligi va hokozolar haqida gapirib, keyinchalik ayrim sabablarga ko'ra bir do'sti bilan birga Buxoroga ko'chib kelganini eslatib o'tadi<sup>1</sup>.

Nishotiy o'zining "Husnu Dil" kabi benazir dostoni, "Qushlar munozarasi" va lirik she'rlari bilan adabiyotimizning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Biz uning "Qushlar munozarasi" asari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Bu asar munozara janrida yozilgan. Ma'lumki, turkiy xalqlar adabiyotidagi munozara qadimgi folklor asarlariga borib taqaladi. Uning ilk yozma namunalarni XI asr (1030 – 1127)da Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ko'ramiz. Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojiblarining asarlarida ham munozara mazmunidagi baytlar va she'rlar uchraydi. Keyingi davr adabiyotiga nazar solsak, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Fuzuliy, Nishotiyilar munozara janrining rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ham bu janrga oid asarlar ko'zga tashlanadi.

Bu asar haqida V.Abdullayev, B.Valixo'jayev, X.Rasulov, M.Qosimova, M.Muhammadiyeva, M.Hamidova, M.Abduvohidova va boshqalarning ishlarida

<sup>1</sup> Н и ш о т и й. Хусн ва Дил. Лирика. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967, 24 – 26-бетлар.

## MUNDARIJA

### Tilshunoslik

N.Mahmudov. Milliy hamiyatning poydor mohiyati.....	3
Y.Odilov. Liberal til siyosati.....	7
A.Hasanov. Ayrim dialectal iboralar xususida.....	12

### Adabiyotshunoslik

B.To‘xliyev. "Muhokamat ul-lug‘atayn" – adabiyot nazariyasining nodir namunasi.....	19
Q.Ergashev. Chustiy ijodida ijtimoiy-falsafiy mavzu va motivlar talqini.....	32
I.Ismoilov. Alisher Navoyning an‘anaviy syujetni yangilash tamoyillari.....	38
S.Rafiddinov. Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asari.....	43

### Ilmiy axborot

H.Yusupov. Ogahiy qasidalarida tasre‘ san‘ati.....	50
H.Allambergenov. Turkiy folklorida "Adirasman" qo‘shig‘i .....	55
O.Hamroyeva. Durbek "Yusuf va Zulayxo" dostonining o‘rganilishi .....	61
B.Rajabova. "Bahoriston"da Rudakiy ta‘rifi.....	65
F.Burxanova. Nazar Eshonqul hikoyalarda ayol ruhiyati tasviri.....	69
G.Xo‘janova. "Hibat ul-haqoyiq" asarining o‘rganilish tarixi.....	73
G‘.Majid. Hamid Olimjon ijodida ohanglar jozibasi.....	76
N.Eshnazarova. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida kal obrazi.....	80
Y.Ro‘ziyeva. Qahramon ruhiyati tasvirida konfliktning o‘rni.....	83
F.Sultonqulova. Usmon Azim she‘riyatida qofiya tizimi.....	86
S.Raimova. Diniy-ma‘rifiy she‘rlarda intertekstuallik .....	90
R.Jumaniyazova. Feruz obrazining badiiy talqini.....	93
M.Rustamova. Matnazar Abdulhakim she‘riyatida gujum obrazi.....	97
A.Qayumov. Badiiy asarning biometrik tahlili.....	99
Z.Baltayeva. Erkin Vohidov ijodida an‘ana va ijodiy individuallik.....	109
N.Atabayeva. Bilvosita tarjimada tarjimon mahorati .....	112
T.Saydaliyev. Kumush portretining ruscha tarjimalardagi ifodasi.....	117
D.Sodiqova. Zulfiya ijodida intertekstuallik.....	121
B.Raxmanov. Surxondaryo aholisi nutqidagi etnografizmlar .....	125
S.Baratova. Namangan shevasi tadqiq obyekti sifatida .....	128

### Fanimiz zahmatkashlari

M.Asadov. Ilm iqlimidagi iste‘dod.....	131
--	-----